



Tadqiqot uz

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

2020

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



Crossref



№23

25 декабрь

conferences.uz

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 23-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
25 - ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
23-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ- 25**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
23-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART- 25**

ТОШКЕНТ-2020



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2020]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 23-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 декабрь 2020 йил. - Тошкент: Tadqiqot, 2020. - 14 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

PhD Шакирова Шохида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8. Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9. Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10. Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11. Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12. Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13. Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14. Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15. Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16. Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17. Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18. Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19. Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20. Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21. Кимё фанлари ютуқлари

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ГЕОГРАФИЯ

1. Qudratova Lobar Toshturdi qizi SURXONDARYO VILOYATINING AGROSANOAT MAJMUASI	7
2. Dehqanova Hurshidahon To'lqinovna UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA GEOGRAFIYA FANIDA ISHLATILADIGAN ASBOBLAR	9
3. Tursunova Nozimaxon Usmonovna GEOGRAFIYA DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING QO'LLANISHI	11
4. Narbadalova Dilrabo Mengliyevna AMALIY GEOGRAFIYA DARSLARIDA O'QITISH METODLARINI TANLASH TEXNOLOGIYASI.....	13



ГЕОГРАФИЯ

SURXONDARYO VILOYATINING AGROSANOAT MAJMUASI

Qudratova Lobar Toshturdi qizi
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston
Miliy universiteti. Geografiya va Tabiiy
resurslar fakulteti. Geografiya o'rganish obyekti
bo'yicha» 1- kurs magistranti talabasi
Телефон: +99893-796-75-74
normurodov.oibek@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada agrosanot majmuasi mexnat taqsimoti va kooperatsiyasi xamda iqtisodiy jarayonlarning globallashuvi negizida vujudga kelgan ob'ektiv iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: eksport, texnik-texnologik, qishloq xo'jaligi, tayyor mahsulot, oziq-ovqat, jaxon bozorlarida, aks ettiradi.

Ma'lumki mamlakat axolisini sifatli oziq-ovqat maxsulotlari bilan uzluksiz ta'minlashda agrosanoat majmuasi muhim o'rin egallaydi. Bugungi kunda agrosanoat majmuasi oldida turgan dolzarb masalalardan biri, oziq-ovqat maxsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash va qayta ishlash hajmuini oshirish xamda jaxon bozorlarida xaridorligi bo'lgan maxsulotlar eksport ko'lamini oshirish xisoblanadi. Bu vazifalarning hal etilishi ichki bozorlarimizni oziq-ovqat maxsulotlari bilan to'ldirish va tarmoqning eksport saloxiyatini oshirish orqali mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga imkon yaratadi, kimyo va ozuqa-yem sanoati tarmoqlarida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik-texnologik yangilash, maxsulotlar turlarini diversifikatsiyalash, chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish xamda tarmoqlarning raqobatbardoshligini mustaxkamlash borasida izchil chora tadbirlar amalga oshirildi. Agrosanoat integratsiyasining moxiyati, zaruriyati va o'ziga xos xususiyatlari qishloq xo'jaligining evolyutsion tarixiy taraqqiyoti bosqichlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish jarayoni uchun zarur bo'lgan barcha vositalarni o'zlarida ishlab chiqarib, tayyor mahsulot yetishtirganlari va bozorlarda sotganlari ma'lum. Shu bilan birgalikda ishlab chiqarish vositalari takomillashib borgani sari qishloq xo'jaligi uchun bu vositalarni tayorlab berishga ixtisoslashgan sanoat tarmoqlari rivojlana boshladi. Keyinchalik qishloq xo'jaligiga servis xizmatlari ko'rsatish, maxsulotlarni saqlash, qayta ishlash, tashish va iste'molchilarga yetkazib berish xam iqtisodning mustaqil soxalariga aylandi. Shu tariqa qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan mustaxkam aloqada va bir-biriga bog'lik bo'lgan iqtisodiy tarmoqlarining zanjirli tizimi vujudga keldi. Iqtisodiyotning bu tarmoqlari tizimini "agrosanoat majmuasi (ASM)" eski g'arb atamasida "agrobiznes" deb atash qabul qilingan. Agrosanoat majmuasi tushunchasiga ta'rif berishda turlicha qarashlar va yondashuvlar uchraydi. Ayrim manbalarda ta'rif berilishicha axolining tayyor oziq-ovqat va nozik-ovqat maxsulotlariga bo'lgan talabini to'liq qondirish yo'lida ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaradigan sanoat tarmoqlari, qishloq xo'jaligi, unga xizmat ko'rsatuvchi, qishloq xo'jalik maxsulotlarini qayta ishlab, tayyor mahsulot darajasiga yetkazuvchi va ularni iste'molchilarga yetkazib beruvchi barcha tarmoqlarning texnikaviy, texnologik, iqtisodiy xamda ijtimoiy jixatdan yagona maqsad yo'lida o'zaro bog'lanishi natijasida agrosanoat majmuasi bu yig'indi respublika agrosanoat majmuasini (ACM) tashkil kiladi. Shundan kelib chiqib agrosanoat majmuasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: "Agrosanoat majmuasi – bu ishlab chiqarishning bir butun zanjirli texnologik ketma-ketligi va o'zaro bog'lanishiga asoslangan, qishloq xo'jaligi uchun ishlab chiqaruvchi vositalarini ishlab chiqarish, unga xizmatlar ko'rsatish, qishloq xo'jaligi maxsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash va qayta ishlash xamda ularni iste'molchilarga yetkazib berish bilan shug'ullanuvchi tarmoqlarning yagona maqsad yo'lida o'zaro integratsiyalashuvi va



yaхlit bir tizimga birlashuvini aks ettiruvchi tuzilmadir”. “Agrosanoat integratsiyasi” terminining iqtisodiy mazmunini ochib berishdan oldin agrosanoat majmuasining tarkibiy tuzilmasi va unga kiruvchi tarmoqlar xususida to’xtalib o’tish joiz. Ta’kidlab o’tish joizki. ACM tarkibi juda keng qamrovli va murakkab tuzilma bo’lib, ko’plab ishlab chiqarish, xizmat ko’rsatish va boshqa soxalar xamda tarmoqlarni o’z ichiga oladi. Ammo, fantexnika va texnologiyalar tarqqiyoti ta’siri ostida ACM tarkibida oldin mavjud bo’lmagan butunlay yangi tipdagi tarmoqlar va soxalar vujudga kelishi va rivojlanishi, ayrimlari esa bu soxani tark etishi xam mumkin. O’zbekiston agrosanoat majmuasi o’lkan eksport saloxiyatiga ega bo’lib, bu serquyosh zaminda yetishtirilayotgan mevalar, sabzavot va poliz maxsulotlari, meva-sabzavotlarni qayta ishlash natijasida olingan oziq-ovqat maxsulotlari dunyo bozorlarida mustaxkam o’rin egallashi mumkin. Respublikamiz bugungi kunda dunyoning 80 ta davlatiga 180 turdan ortiq har- xil meva-sabzavot va ularni qayta ishlash asosida tayyorlangan maxsulotlari eksport qilmoqda. Eksport diversifikatsiyasi, ya’ni xorijga sotilayotgan tovar va xizmatlar ro’yxatining kengayishi, jami eksportda aloxida tovar yoki xizmat turi (ayniqsa, xomashyo) ulushining katta bo’lishiga barxam berilishi maxsulotlar eksport qilinayotgan mamlakatlar geografiyasini kengaytiradi, eksport hajmining barqaror bo’lishini ta’minlaydi, milliy iqtisodiyotning tashqi bozordagi salbiy o’zgarishlarga ta’sirchanlik darajasini pasaytiradi. Keyingi yillarda dunyoda yuz berayotgan inqirozli xolatlar tashqi bozorlarga xam salbiy ta’sirini ko’rsatib, jaxon bozorlarida nomaqbul kon’syunkturaviy o’zgarishlar xamda asosiy savdo xamkorlari xisoblangan mamlakatlarda milliy valyutalarning qadsizlanishi kabi xolatlarda namoyon bo’lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Ch.Murodov, Sh.Dasanov, H.G’aniev. M.Murodova. Agroklastarlarni tashkil etishda Janubiy Koreya tajribasidan foydalanish yo’nalishlari. “O’zbekiston agrosanoat majmuasining raqobatbardoshligini oshirish va eksport saloxiyatini yuksaltirish” mavzusidagi Respublika ilmiy amaliy anjumani ma’ruza tezislari tuplami. TDIU, 2014 yil 30 aprel. -167- 173 b. 4. Ch.Murodov,
2. Sh.Xasanov, I.G’aniev, O’zbekiston qishlok xo’jaligida qayta ishlashni rivojlantirishda agroklastarlarni yaratishdagi dastlabki qadamlar. “O’zbekiston agrosanoat majmuasining raqobatbardoshligini oshirish va eksport saloxiyatini yuksaltirish” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani ma’ruza tezislari tuplami. TDIU, 2014 yil 30 aprel. -209-212 b.



UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA GEOGRAFIYA FANIDA ISHLATILADIGAN ASBOBLAR

Dehqanova Hurshidahon To'liqinova
Namangan viloyati Uychi tuman
35-maktab geografiya fani o'qituvchisi
+998939137208
dehqonovahurshida@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada geografiya fanida foydalaniladigan asboblar va AKT larni ijobiy tomonlari haida to'liq ma'lumotlar berilgan

Kalit so'zlar: axborot texnologiyalari, globus, kontur, karta, okean va dengizlar, rasmlar, tarqatmalar.

Maktabda geografiyani o'qitishda tatbiq etiladigan asboblar Maktablarda kontur kartalarni kupincha dars oxirida tuldirdilar xamda ularga uyga topshirik tarikasida beriladi. Uyda bajarilgan kontur kartalar anik chiroyli bulsa xam, biroq ko'chirib olingan yoki boshqa bir kishi ishlab bergan bulishi mumkin, bu ish o'quvchiga yetarli bilim bermaydi. Kontur kartalarni sinfda ishlash yaxshi natija beradi; bunda o'quvchilar Yangi materialni o'rganadilar, bilimlar mustaxkamlanadi. Kontur karta bilan olib boriladigan ishdan oldin o'qituvchi uni bajarishga doir kursatmalar berishi kerak. Obekt kontur kartaga tushirilgach, o'quvchidan bu obekt haqida qisqacha ma'lumot berishni talab qilish mumkin. Kontur kartani izox bilan to'ldirish usulidan kengroq foydalanish kerak. Kontur kartaga tushiriladigan

geografik nomlar miqdori juda ko'p bulmasligi kerak. Kontur kartada bajariladigan ishlar ijodiy xarakterga ega bo'lishi, ukuvchilar bu ishlarni ongli va mustakil bajarishlari kerak. Bir xil turdagi ishlar o'quvchilarni zeriktirib qo'yadi, shu sababli kontur kartada bajariladigan ishlar xilma-xil bo'lishi kerak. Kontur kartada olib borilgan ishlar o'z vaqtida tekshirilib, baxolanib va tegishli kursatmalar berilib turilishi lozim. Globus bilan ishlash. Globus geografiya uchun eng zarur qo'llanmadir. Yer shari modeli-globusning qimmatli va uzga xos xususiyati uning teng masshtabligidir. Globus- Yer haqida tugri tasavvur beradigan, maydon va eng qisqa oraliklarni (ortodromiya) tugri kursatadigan va ifodalaydigan asosiy o'quv qurolidir. Globus o'quvchilarga bir qancha noanik narsalarni bilib olishga imkon beradi. Yer shari tabiati quyoshdan tushadigan nurning tik yoki qiyaligiga bog'lik ekanligi xam globusdan o'rganiladi. Globus barcha tabiiy geografiya kurslarida, xususan quyidagi masalalarni xal etishda; yerning sharsimonligini isbotlashda; yer yuzasidan kutarilgan sari gorizontning kengayib borishini tushuntirishda; materiklar va okean larning o'zaro xolatini aniqlashda. Geografiya o'qituvchisi qanchalik tajribali, nutqi chiroyli, ravon va sodda bulmasin, u darsni quruq so'zlar bilan o'tmasligi kerak. O'qituvchi tasvirli materiallardan foydalanayotganda o'quvchilar diqqatini o'rganilayotgan obekt tasvirini ko'zlatishga, uning uziga xos belgilarini aniqlashga va umumiy xulosalar chiqarishga jalb etishi va tasvirga izox berib borishi kerak. Tasvirli kulanmalarning asosiy turlari va ulardan darslarda foydalanish usullariga tuxtalamiz. Rasmlar. Rasm darsda bilim manbalarida biri bulib xizmat qiladi. Shu sababli urganiladigan obekt va xodisalarni kurib tasavvur qilishda rasmlarning axamiyati kattadir. Rasmda tasvirlangan tabiiy geografik obekt va jarayonlar (vulkon otilishi, tabiat zonasining landshafti) mushoxada qilinadi. Tasvirli ko'rsatmalardan biri fotosuratlar bo'lib, ular landshaftning aslini kursatadi. Jurnal, kitob, gazetalardan to'plangan illyustratsiyalar va fotosuratlarni epidiaskop orqali kursatish xam mumkin. Bugungi kunda zamonaviy axborot texnologiyalar asri bulganligi sababli kompyuter ekranli slaydlar prezentatsiyalardan foydalanish samara bermogda. Ekranli qo'llanmalar. Ekranli kulanmalar ikki xil buladi: proyeksion apparatlar va televideniye proyeksion apparatlarning o'zi 3 xil (episkop, epidiaskop, diaskop) ga ajratiladi. Televideniye. Bu ta'lim-tarbiyadagi eng yangi vosita . Televizor ekrani obekt, xodisa , vokealarni Ayni vaqtda ruy berayotgan va uzgarayotgan xayotni kursatuvchi kuzgudur. Bu o'quvchilarga geografik landshaft, geografik voqelikning ichiga bevosita kirib borishiga yordam beradi. Televideniye kata emotsional tasir kuchiga ega. U o'quvchilarni o'ziga jalb etuvchi, bitmastuganmas bilim manbaidir. Televideniye dan ta'lim – tarbiya ishlarida bilimning qo'shimcha manbai va yordamchi vosita sifatida foydalaniladi. Televideniye dan maktab o'quvchilariga mo'jallangan bir necha ilmiy ommabop suxbat, leksiya, filmlar, shuningdek olamga sayoxat,



kinosayoxatchilar klubi, fan olamida kabi eshittirishlar beriladi. Bu eshittirishlar o'zining mazmuni jixatidan geografiya faniga tegishlidir. Bunday eshittirishlarning asosiy maqsadi o'quvchilarning bilim doiralarini kengaytirish, ularning turli soxadagi qiziqishlarini ma'lum darajada qondirishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Geografiya o'qitish metodikasi . maruzalar matni. Toshkent -2015
2. Ziyonet” Biblioteka Geografiya o'qitish metodikasi
3. O'zbekiston respublikasining ta'lim to'g'risidagi qonuni. Toshkent -2017.
4. www.ziyouz.com



GEOGRAFIYA DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING QO'LLANISHI

*Tursunova Nozimaxon Usmonovna
Farg'ona Viloyat, Furqati tumani
7-umumiy o'rta ta'lim
maktabi geografiya fani o'qituvchisi*

Annotasiya: Ushbu maqola ta'lim tizimida pedagogik texnologiya asosida o'quv tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari, ya'ni interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyos. Innovatsion texnologiyalar ta'limda qo'llanishiga oid bilimlar, tajriba o'quvchilarni bilimli va yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Tayanch so'zlar: pedagogik texnologiya, innovatsion texnologiyalar, axborot texnologiyalar, interfaol ta'lim

Respublikamizning mustaqillikka erishish geografiya ta'limida ham keskin o'zgarishlar yasadi. Maktabda geografiya fanini o'qitish mazmuni tubdan o'zgardi va boyidi. Uni chuqur o'rganish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Tajriba va kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, qachonki o'quvchi o'zi yashab turgan o'lka geografiasini mukammal bilsagina, boshqa o'lkalar geografiasini bilishga qiziqishi ortadi. O'qituvchilarning ko'p yillik tajriba va kuzatishlaridan yana shu narsa ma'lum bo'ladiki shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatib kelinganligi ma'lum. Bunday usul o'quvchilarga mustaqil fikrlash, ishlash, ijodiy izlanish, tashabbus ko'rsatish qobiliyatlarini rivojlantirishga katta imkon bermasligi mumkin. Endilikda fan texnika va innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish natijasida o'quv- tarbiya jarayonida interfaol uslublar (Innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari)dan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish , etibor kundan kunga kuchayib bormoqda. Pedagog- olimlarning ko'p yillar davomida ta'lim tizimida:

Nega o'qitamiz? Nimaning o'qitamiz? Qanday O'qitamiz savollarga javob izlash bilan bir qatorda Qanday qilib samarali va natijali o'qitish mumkin? Degan savoliga ham javob qidirilar. Bunday fikrni tug'ilishi pedagogika fanida yangi pedagogik texnologiya yo'nalishini yuzaga keltiradi. Bugungi kunda ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishga alohida e'tibor berilayotganing asosiy sababi quyidagilar.

1 Pedagogik texnologiyalardan foydalanish shaxsni rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish imkoniyatining kengligida. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratilganligida .

2 Pedagogik texnologiyalar o'quv tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini yaratadi.

3 Pedagogik texnologiya o'qituvchini ta'lim tarbiya jarayoning maqsadlaridan boshlab, tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo'lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undashadi.

Innovatsiya (inglizcha innovation) - yangilik kiritish, yangilanish nimanidir o'zgartirish demakdir. Innovatsion pedagogik texnologiyalar ta'lim tizimi, pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritishni anglatib, bu jarayonni amalga oshirishda asosan interfaol usullardan foydalaniladi. Interfaol("Inter" –bu o'zaro "act"-xarakat qilmoq)-o'zaro harakat qilish(yoki kim bilandir suhbatda, muloqatda bo'lish)ni anglatadi. Interfaol ta'limning mohiyati o'quvchilarni bir –biridan o'rganishiga yo'naltirilgan ta'lim ekanligida.

Interfaol ta'lim, interfaol uslublar muntazam muloqatga asoslangan uslublar tizimi bo'lib, o'quvchilarning hamkorlikdagi va faol ishtirokidagi ta'lim va uslublar tizimi hisoblanadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, o'qitishning uslublari-bilish va kommunikativ faoliyatini tashkil etishning maxsus shakli bo'lib, unda ta'lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'ladilar, ular biladigan va o'ylayotgan narsalarni tushinish va fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Ta'lim metodlari va ularning turlari. O'qitishdan ko'zlanadigan maqsad va davlat ta'lim standartlarida belgilangan bilim va ko'nikmalarni o'quvchiga yetkazishdan iborat. Qachonki o'quvchi tamonidan bilim qabul qilinsa va tushinib yetilsa yoki o'quvchi malaka oshirish uchun mo'ljallangan topshiriqlarni amalda namoyish etib bera olsagina oqitish muvaffaqiyatli kechadi deb hisoblasa bo'ladi. Bugungi kunda an'anaviy ta'limni zamonaviylashtirish yo'lida birgina



texnologiyaga asoslangan o'qitish uchramaydi. Odatda o'qitishda bir necha texnologiyalarning elementlari birdaniga qo'llaniladi, chunki pedagogik texnologiya –bu o'quv jarayoni to'liqligicha egallovchi loyiha yahlitlik, natija ya'ni o'quv jarayoni inson va texnik imkoniyatlarni hisobga olgan holda aniq maqsad, natijaga yo'naltirilgan jarayondir.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim tizimida o'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya—bu aniq ketma–ketlikdagi yahlit pedagogik jarayoni bo'lib, o'quvchining ehtiyojidan va texnik imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va kafolatlangan natijani berishga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Adabiyotlar:

1. R.Ishmuhammedov,M.Yuidashev Ta'lim va tarbiyada innovasion pedagogic tehnologiyalar. Toshkent 2017y.
2. K Yuldoshev . O'qituvchi kitobo. Metodik qo'llanma. Toshkent 2000y.



AMALIY GEOGRAFIYA DARSLARIDA O'QITISH METODLARINI TANLASH TEKNOLOGIYASI

*Narbadalova Dilrabo Mengliyevna,
Navoiy viloyat Karmana tuman
8-umumta'lim maktab
Geografiya fani o'qituvchisi*

Geografiya darslarida o'qitish metodlarini tanlash o'ta muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Agar tegishli metod noto'g'ri tanlangan bo'lsa o'qituvchi va

o'quvchining birgalikdagi faoliyati samarasiz bo'lib qoladi. Shuning uchun o'qitish metodlarini tanlash ma'lum bir tamoillar asosida olib borilmog'i lozim. Ular quyidagilardan iborat. «Tanlangan metod» o'tiladigan mavzuning mazmuniga mos bo'lishi lozim. Bu metodni samaradorligini birinchi va muhim sharti hisoblanadi. Ko'p xollarda bir xil mazmundagi dars o'tish uchun yagona bitta metodni qo'llash ko'p xollarda samara bermaydi. Shuning uchun o'qituvchilarni va o'quvchilarni faoliyatiga mos keladigan metodlarni tanlash lozim. Bunda o'quvchilarni bilish imkoniyatlari, ular amalga oshiradigan faoliyatning murakkablik darajasi, vaqt omili va geografiya kabinetida zarur bilim manbalarining bor yo'qligi metod turini aniqlab beradi. O'qitish metodini tanlaganda o'quvchilarni bilish qobiliyatlarini hisobga olish tamoyili, bunda quyidagilarga e'tibor beriladi:

- o'quv mavzusining murakkabligiga;
- nazariy bilimlar xajmiga;
- sinf o'quvchilari darajasiga;
- o'quvchilarning mustaqil ishlarni bajara olish qobiliyatiga; Geografik bilimlarni xususiyatlarini hisobga olish tamoyili. Geografik bilimlar bilishning xususiyatiga qarab quyidagi turlarga bo'linadi:

- geografik voqea va xodisalarni tashqi ko'rinishi haqidagi bilimlar. Mazkur bilimlar o'quvchilarda o'rganilayotgan voqealar haqida tasavvurlarni shakillantiradi. Masalan, tog'lar o'rmonlar, cho'llar, ko'llar, daryolar, kartalar va x.k.;

- geografik voqea va xodisalarni fazoda joylashishi haqidagi bilimlar tabiat zonalari, iqlim mintaqalari, davlatlar, shaharlar, ma'muriy birliklarini joylashuvi;

- geografik voqea va xodisalarni xossalari haqidagi bilimlar. Bunday bilimlarga tuproqning xosildorligi, namgarchilik, bug'lanish, intensive va ekstensiv xo'jalik, tog' jinslarining qattiqligi, suvning sho'rli va harorati va x.k.;

- geografik jarayonlar haqidagi bilimlar. Mazkur bilimlarga shamol, yog'inlar, suv erroziyasi, surilmalar, zil-zilalar, ishlab chiqarish jarayonlari, migratsiya, urbanizatsiya, vulkanlar va boshqa jarayonlar kiradi;

- geografik borliq va xodisalarning tarkibi haqida bilimlar. Masalan, tog' jinslarining tarkibi, yog'inlarning tarkibi, yer resurslarining tarkibi, aholining milliy tarkibi va x.k.;

- geografik borliq va xodisalarining tuzilishi haqidagi bilimlar. Mazkur bilimlarga yerning qobig'i, yerning tuzilishi, atmosferaning tuzulishi, yerning ichki tuzilishi, qishloq xo'jaligining tuzilish, tuproqning tuzilishi, xalq xo'jaligining tuzilishi va x.k.;

- geografik voqea va xodisalar orasidagi aloqalar haqidagi bilimlar, masalan, sabab va oqibatlar, davriy, fazoviy, funktsional aloqalar. Mazkur bilimlarning har biri alohida o'qitish usullarini qo'llashni taqazo etadi.

Qo'llaniladigan metodlar quyidagi talabalarga javob berishi lozim:

a) metod tarbiyaviy bo'lishi lozim, ya'ni o'quvchilarning rivojlanishga, qiziqishlariga ta'sir ko'rsatishi lozim;

b) tanlangan metod ilmiy bo'lishi lozim, metod ilmiy jihatdan qanchalik asoslangan bo'lsa, shunchalik ravshan va aniq bo'ladi;

v) metod ommabop bo'lishi lozim;

g) metod samarali bo'lmog'i zarur, ya'ni o'quv materiallarini mustahkam egallashga yo'naltirilgan bo'lishi zarur

Adabiyotlar

1. Abdug'aniev O. Geografiya darslarida texnika vositalaridan foydalanish. Toshkent "O'qituvchi" 1995

2. Barinova I.I. Uchebnik i texnologiya protsessa obucheniya. Geografiya v shkole, 1990, №5, s.31-33

3. Barinova I.I. Sovremenniy urok geografii. Geografiya v shkole, 2000 №6,s. 41-44.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 23-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(25-қисм)

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.12.2020

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000